

## JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZIMINI TAKOMILASHTIRISH

Sanayeva Durdona Tulqin qizi  
Ilmiy rahbar: Agzamov Avazxon

### **Annotatsiya:**

*Maqolada O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi  
vazifalari hamda soliq tizimi modernizatsiyasining qo'shimcha chora-tadbirlari  
ijrosidan kelib chiqib jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyotining  
hozirgi holati, uning muammolari va tortishuvli masalalari hamda uning  
samaradorligini oshirish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan*

### **Kalit so'zlar:**

*soliqlar va soliqqa tortish, aholi daromadlari, jismoniy shaxslar, jismoniy shaxslar  
daromad solig'i, daromad solig'i elementlari, soliqni hisoblash tartibi, soliqni to'lash  
tartibi.*

### **E-mail:**

[shoxjahonsanayev5852004@gmail.com](mailto:shoxjahonsanayev5852004@gmail.com)

### **Muallif ma'lumotlari:**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti*

## KIRISH

O'zbekistonda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarda soliqlarning barqaror tushumini ta'minlash, soliq yukini izchil kamaytirish negizida aholi real daromadlarini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga pozitiv ta'sir etuvchi o'zaro uyg'unlashgan soliq tizimini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu masalalarni hal qilish uchun respublikamizda soliq yukini aholining ijtimoiy qatlamlari o'rtasida tekis taqsimlash, mavjud imtiyozlarning samaradorligini baholash va optimallashtirish, aholining real daromadlarini oshirishda soliq tizimining muhim elementi hisoblangan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, soliqlar faqat xalq va davlatning moliyaviy ehtiyojlarini ta'minlash emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning davlat tomonidan tartibga solishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, soliq tizimiga kiritilgan soliqlarning har biri har qanday mamlakatda uning oldiga qo'yilgan vazifalarini to'liq, yuqori darajada amalga oshirishi kerak. Soliqlar yukining yuqoriligi albatta ishlab chiqarishga salbiy ta'sir etadi hamda aholi va yuridik shaxslarning daromadlarini yashirish, soliq to'lashdan qochishga, ya'ni davlat budgetini talab darajasida tashkil eta olmasligiga olib keladi.[1]

Soliqlar paydo bo'lishi ob'ektiv ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lib, insoniyat jamiyatining mavjudligi va yanada rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit edi. Soliqlarning asosiy maqsadi davlat ehtiyojlarini qondirishdir.

Davlatning rivojlanishi va uning vazifalarini kengaytirish ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida soliqlarga oid ilmiy qarashlarning evolyusiyasi bilan birga keladi. Iqtisodiy fanlar doirasida soliqlarning umumiyligi nazariyasi paydo bo'ldi. Soliqlar umumiyligi nazariyasining asosiy poydevori ularning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni masalasidir. Soliqlar bir narsa evaziga to'lanishi kerak yoki ular bepul, boshqacha aytganda betarafdir.

## ADABIYOTLAR SHARI

Davlatning bozor sharoitida iqtisodiyotni maqsadli boshqarishning shaffof mexanizmlarini yaratish orqali 2021 yildan mamlakatimizda o'rta sinfni shakllantirish, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish hamda iste'mol savatchasi va tirikchilik uchun zarur eng kam miqdorlar joriy etilishini inobatga olib jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqning yangi sifat tavsifini ta'minlashga qaratilgan tegishli yo'riqlar va ko'rsatmalar ishlab chiqilishi lozim. Ushbu yo'riqlar va ko'rsatmalarning ishlab chiqilishi va tez fursatlarda hayotga tatbiqi daromadlarni soliqqa tortishda ijtimoiyadolat tamoyili ijrosi ta'minlanishiga hamda jismoniy shaxslarning daromadlari legallashuvidan hamda soliq qonunchiligiga itoatkor fuqarolarning o'z kelajagi va muvaffaqiyatlariga bo'lgan ishonchining oshishini ta'minlaydi.

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq ma'muriyatichiligi samaradorligini oshirish va bunda soliq to'lovchilar hamda soliq organlari o'zaro manfaatli faoliyatini

ta'minlashi lozim. Bunda soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni samarali faoliyat yurituvchi soliq ma'muriyatchiligi instituti orqali davlatga bo'lgan ishonchi ortadi.

Mamlakatda soliq ma'-muriyatchiligin takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, shu jumladan, soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzdorlik summalarini qisqartirishning ayrim masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Mazkur masala bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijlik olim V. Morozning fikriga ko'ra, «Soliq to'lovchilarning soliqlar va soliq qarzini bir xil mazmunda tushunishi chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Hech qachon sud yoki soliq organi soliqlarni undirmaydi. Faqtgina soliq qarzi, penya hamda moliyaviy sanksiyalar undirishni talab etadi. Hattoki, soliq qarzi ham undirilmay, balki ixtiyoriy ravishda to'lanishi mumkin. Aynan shu xulosa soliq qonunchiligidagi belgilab qo'yilsa va buning natijasida fuqarolarning huquqiy ongida ham aks etsa, soliq to'lovchilar uchun soliqlar «erkinlik» belgisi sifatida ham namoyon bo'ladi» [4].

Xorijlik olim Michael Brostek esa o'z tadqiqotida soliq qarzi undirilishining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi omillarini ko'rsatib o'tadi, xususan:

- mamlakatda soliq qarzi summalarining paydo bo'lishiga yo'l qo'yishning oldini olishda soliq yukini pasaytirish kelajakda soliq qarzdorliklari kamayishiga olib keladi;
- muddatida to'lanmagan soliqlar va yig'imlarni undirish strategiyasi faqat belgilangan davr mobaynida o'z ijobjiy natijasini beradi [5]. Bu borada rus tadqiqotchilari S.N.Alixin va D.A.Levacheva o'z ilmiy tadqiqotlarida soliq qarzini undirish mexanizmining nazariy asoslarini keltirib o'tishgan. Unga ko'ra, ular soliq qarzini undirish soliq bazasini kengaytirish bilan birgalikda uni soliq to'lovchidan undirish murakkabligini ta'kidlab, bu jarayonga alohida yondashuvni inobatga olgan holda soliq qarzi mavjud bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy holatidan kelib chiqib undirish mexanizmni ishlab chiqish kerakligini ta'kidlashgan[6].

Shuningdek, I. Niyazmetovning ta'kidlashicha, soliq qarzi yuzaga kelishini "QQS va mulkiy soliqlar yukining, asosan, sanoat korxonalari zimmasiga yuklatilganligi soliq yukining notekis joylashuviga, sanoat korxonalari soliq yukining nisbatan og'ir bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa korxonalarda soliq qarzi muammosini tugatishga yo'l bermaydi. Soliq qarzlarining katta qismi umumbelgilangan soliqlar kesimiga to'g'ri keladi. Bu esa soliq yukining umumbelgilangan tartibda soliq to'lovchi korxonalar moliyaviy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan darajada og'irligidan dalolat beradi" [9].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar ular daromadlarining muayyan qismini davlatning markazlashgan fondini shakllantirish uchun davlat budgetiga undirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat budgeti daromadlarini shakllantirish bilan

bir vaqtajitmoiy barqarorlikni ta'minlashga hamda jismoniy shaxslarning faolligini oshirishga ham xizmat qiladi. Mazkur soliq asosiy elementlarini tadqiq etish amaldagi soliq qonunchiligi asosida belgilanadi.

### **1-rasm. 2024-yil uchun qat'iy belgilangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi**



Faoliyat turi	Bir oylik soliq stavkalari (so'mda)			
	Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyat markazlari bo'lgan shaharlar	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
Chakana savdo: 1 oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan	907 500	726 000	363 000	242 000
dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan	302 500	181 500	121 000	60 000
gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	302 500	181 500	121 000	60 000
2 Maishiy xizmatlar	302 500	181 500	121 000	60 000
3 Boshqa faoliyat turlari	302 500	181 500	121 000	60 000
4 Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari:				
3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobili uchun		181 500		
3 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobili uchun		275 000		

\* Mazkur stavkalar yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun 2024-yil 1-fevraldan kuchga kiradi.  
 \* 2024-yil yanvar oyida qat'iy belgilangan miqdordagi daromad solig'i 2023-yildagi stavkalar bo'yicha to'lanadi.

### **NATIJALAR**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida"gi PF-5468-sen Farmonida soliq siyosati barqarorligini ta'minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozimligi belgilab berilgan edi. Ushbu vazifani bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 iyuldagи "Soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389 sonli Qarori qabul qilindi va ushbu qaror bilan "Soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish strategiyasi" ma'qullandi. Shuningdek, ushbu qarorga asosan "Soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish strategiyasi"ning asosiy vazifalari va yo'nalishlari belgilab berildi. Strategiyada belgilanganidek, 2021 yilga kelib jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lovchilar sonini 1,5 baravar oshirishga erishildi.

### 1- jadval. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish

T/r	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko'rsatkich	Oylik ijara to'lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so'mda		
			Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyat markazlari-dagi shaharlar	Boshqa aholi punktlari
1	<b>Uy-joylar:</b>				
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun	25 000	12 000	5 000
	noturuar joy		40 000	23 500	10 000
2	<b>Avtomobil transporti:</b>				
	engil avtomobil (yo'lovchilar, bagaj tashishga mo'ljalangan hamda haydovchi o'rnini hisoblamaganda, o'rindiqlari soni 8 tadan ko'p bo'lмагan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun		780 000	
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari			1 550 000	

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-son Qonuni 8-ilovasi bilan 2024-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to'loving eng kam stavkalari belgilandi.

Shunga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to'loving hududlar bo'yicha eng kam stavkalari yuqorida jadvalga muvofiq belgilandi

Mazkur qonun bilan stavkalar jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo'llanilishi hamda ko'chmas mulkdan tekin foydalanish shartnomalariga (yaqin qarindoshlar o'rtasidagi shartnomalardan tashqari) ham tatbiq etilishi ko'rsatildi.

#### XULOSA VA MUNOZARA

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz:

Aholi turmush tarzini yaxshilash istiqbollariga asoslangan yangi soliq siyosati asosida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish ularni bartaraf etish yuzasidan davlatning tezkor tadbirlari tizimi ishlab chiqilishi lozim.

- ijtimoiy adolat va ijtimoiy yo'naltirilganlikning aniq belgilari, soliq to'lovchi uchun soliq to'lash majburiyati yuzaga kelmaydigan yashash uchun daromadning minimal darjasini rasmiy belgilab qo'yilmagan;

- soliqqa tortishni amalga oshirish bilan davlat o'zi erishadigan ijtimoiy maqsadlarni aniq ifodalamayotir;

- "erishish lozim bo'lgan yoki namunali turmush tarzi"ni aniqlash va uni o'lchash mezonlarida anqlik yo'q. Buning oqibatida, davlat soliq siyosati ko'proq davlatning ijtimoiy funksiyalari bajarilishini ta'minlashga hamda ijtimoiyadolat va ijtimoiy tenglikka erishishning strategik vazifalarini hal etishga emas, balki ko'proq joriy fiskal extiyojlarni qondirishgagina qaratilmoqda.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Adizov A. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari. O'quv qo'llanma. – T.:Akademiya, 2012. – 124 b.
2. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma, -T.: "EL PRESS", 2011 yil – 240 b.
3. Vahobov A.V, Jo'raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik.–T.: "Sharq", 2009. - 448 b
4. Xudayberganova S.K. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tahlili// // Iqtisod va moliya. Экономика и финансы. 2019, №4,
5. Xusainov R.R. O'zbekistonda jismoniy shaxslarni soliqqa tortishni isloh qilish muammolari. // Iqtisod va moliya. Ekonomika i finansy. 2018, №6, 43-48-b.
6. Bozopov A.A. O'zbekistonda jismoniy shaxslapning ish hqqidan olinadigan dapomad solig'ini iqtisodiy-matematik ifoda etish. «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali, 2017, №4
7. [https://www.instagram.com/soliqpressa/p/C1q2qV0NXLg/?img\\_index=1](https://www.instagram.com/soliqpressa/p/C1q2qV0NXLg/?img_index=1)
8. <https://soliq.uz/page/jismoniy-shaxslarga-soliq-solish>
9. Quvvatov G. KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY RESURSLAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH //World scientific research journal. – 2024. – T. 23. – №. 2. – C. 199-214.
10. Quvvatov G. TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MIKROMOLIYA XIZMATLARINING O'RNI VA ULUSHINI OSHIRISH //International Journal of scientific and Applied Research. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 11-15.
11. Quvvatov G. MUHIM QARORLAR ASOSIDA MIKROMOLIYA TASHKIOTLARIGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR //International Journal of scientific and Applied Research. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 7-10.
12. Quvvatov G. MIKROMOLIYA TASHKIOTLARIGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR //International Journal of scientific and Applied Research. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 3-6.
13. Quvvatov G. MOLIYAVIY RESURSLARNING TAHLILI VA UNING KORXONA ISTIQBOLIDAGI ROLI //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – T. 24. – №. 5. – C. 240-247.
14. Quvvatov G. et al. DAVLAT BUDJETI IJROSI TO'G'RISIDAGI HISOBOT VA UNING AXBOROT IMKONIYATLARI TAHLILI //Ta'lim fidoyilari. – 2023. – T. 6. – C. 63-70.

15. Kuvvatov G. Mechanism for Managing Financial Resources of Industrial Complex //Published in International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd), ISSN. – C. 2456-6470.
16. Kuvvatov G. Methods for evaluating the effectiveness of use financial resources of the enterprise //Экономика и социум. – 2021. – №. 9 (88). – С. 101-104.
17. Кувватов Ф. Б. Молиявий ҳисоботлар ва уларнинг тузилишидаги муҳим жиҳатлар: миллий ва халқаро тажриба //Халқаро молия ва ҳисоб.-Тошкент. – 2019. – Т. 6. – С. 1-14.
18. Quvvatov G. FINANCIAL STATEMENTS AND IMPORTANT ASPECTS OF THEIR CONTENT: NATIONAL AND INTERNATIONAL EXPERIENCE //International Finance and Accounting. – 2019. – Т. 2019. – №. 6. – С. 22.
19. Abduganieva G. K., Kuvvatov G. B. DEVELOPMENT OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE TAX SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА, СТАТИСТИКИ И НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ. – 2018. – С. 13-17.
20. Khashimov B. A., Eshonkulov L. A., Kuvvatov G. B. STATEMENT OF BUSINESS SUBJECTS FOR THE REPORTING YEAR //АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА, СТАТИСТИКИ И НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ. – 2018. – С. 17-22.
21. Sativaldieva D. A., Kuvvatov G. B. FEATURES OF ACCOUNTING FOR INTANGIBLE ASSETS IN THE CONTEXT OF FUNDAMENTAL STRUCTURAL CHANGES IN THE COUNTRY'S ECONOMY //Экономика и социальная сфера: проблемы взаимодействия и развития. – 2018. – С. 156.
22. Quvvatov G., Atamuratov A. R. FEATURES INFORMATION SYSTEM IN ACCOUNTING //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2017. – Т. 2. – №. 6. – С. 39-41.
23. KHASHIMOV B. A., KUVVATOV G. B. U. SOME PECULIARITIES OF ACCOUNTING FOR WITHHOLDING OF PERSONAL INCOME TAX AND OTHER PAYMENTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА, СТАТИСТИКИ И НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ. – 2017. – С. 26-33.
24. KUVVATOV G. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ //ЭКОНОМИКА. – Т. 9. – С. 101-104.
25. STATEMENTS F., CONTENT I. A. O. F. T. NATIONAL AND INTERNATIONAL EXPERIENCE.
26. Quvvatov G., Norquzivev A. O'ZBEKİSTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURCHILIGI AMALIYOTI, YUTUQLARI VA KAMCHILIKLARI, UNI SODDALASHTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 4-9.
27. Quvvatov G. et al. 2023-YIL SOLIQ QONUNCHILIGIDAGI KIRITILGAN O'ZGARTISHLARNING DAVLAT BYUDJETIGA VA IQTISODIYOTGA TA'SIRI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 10-15.